



O'zbek geologiya qidiruv" AJ  
Yagona aksiyadorining  
2023-yil "05" 07 dagi  
-son qaroriga  
10-ILOVA

**"O'ZBEK GEOLOGIYA QIDIRUV" AKSIYADORLIK JAMIYATI  
KUZATUV KENGASHI TO'G'RISIDAGI  
NIZOMI**

## I. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, boshqa qonun hujjatlari, "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatining (keyingi to'rirlarda - Jamiyat) Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan, hamda Jamiyat Kuzatuv kengashining huquqiy maqomini, faoliyat tartibini, huquq va majburiyatlarini, shuningdek Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash tartibi va ularning huquq va majburiyatlarini, Kuzatuv kengashi tomonidan qarorlar qabul qilish tartib-taomilini belgilaydi.

2. Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, qonun hujjatlari va Jamiyat ustavi bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatiga kiradigan masalalarni hal qilish bundan mustasno.

3. Kuzatuv kengashi a'zolari o'rtasidagi funksiyalarini taqsimlash Kuzatuv kengashi raisi tomonidan Kuzatuv kengashining har bir a'zosi uchun alohida belgilanadi.

## II. KUZATUV KENGASHINING VAKOLATLARI

4. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- Jamiyatning biznes-rejasini ko'rsatkichlari bajarilishi, shuningdek, rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rileyotgan chora-tadbirlar to'g'risida Jamiyat Ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'naliishlarini belgilash;

- aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno;

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash, o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish va ishtirok etish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

- Qonunning 59-moddasi birinchi qismining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;

- mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

- Jamiyatning Ijroiya organiga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalar miqdorlarini belgilash;

- korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

- Jamiyatning yillik biznes-rejasini joriy yilning 1-dekabridan kechiktirmay tasdiqlash;

- ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini lavozimga tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

- Jamiyat Ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Jamiyat Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni Ijroiya organidan olish. Jamiyat Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

- auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnomaga tuzish (shartnomani bekor kilish) to'g'risida karor kabul kilish;

- jamiyatning ijroiya organini tuzish, rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

- Taftish komissiyasi a'zolariga (taftishchisiga) to'lanaqidan haq va kompensatsiyalarning miqdorlari yuzasidan tavsiyalar berish;
- dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;
- zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;
- filiallarni tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;
- sho'ba va tobe xo'jalik Jamiyatlarini tashkil etish (ular aksiyadorlik Jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan Jamiyati shakllarida tuziladi);
- Qonunda belgilangan hollarda Jamiyat tomonidan yirik bitimlar va Jamiat affillangan shaxslari bilan (manfaatdorlik) bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish (qaror yig'ilishda qatnashgan kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi, bunda kuzatuv kengashidan chiqib ketgan a'zolarning ovozi inobatga olinmaydi);
- Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;
- korporativ obligatsiyalar, shu jumladan, aksiyalarga ayriboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish, shuningdek Jamiyat ustaviga Jamiatning ustav fondini ko'paytirish hamda Jamiatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qaror qabul qilish;
- qo'shimcha aksiyalar chiqarilushi to'g'risidagi qaror va emissiya risolasini tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qilish;
- avval ro'yxatga olingan aksiyalar chiqariluviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (jumladan, avval ro'yxatga olingan aksiyalar chiqariluviga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar matnni tasdiqlash) to'g'risida qaror qabul qilish;
- aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;
- qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- homiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) to'g'risida qarorlarni, bu haqda barcha aksiyadorlar uchun ma'lumotlarni oshkor etgan tarzda qabul qilish. Bunda homiylikka sarflanadigan har yilgi xarajatlari o'tgan yilda olingan sof foydaning 3 foizidan oshmasligi kerak hamda bu xarajatlar ular biznes-rejasining o'tgan hisobot davridagi sof foydaga taalluqli qismi ko'rsatkichlari bajarilganda amalga oshiriladi;
- Kuzatuv kengashi qoshida Kuzatuv kengashi, Ijroiya organlari a'zolari, Jamiat xodimlari va jalb etilgan ekspertlar (tegishli soha mutaxassislar, soha oliy ta'llim muassasalarini o'qituvchilar va boshqalar) dan iborat tegishli masalalar, shu jumladan, nizoli vaziyatlarni aniqlash va hal etish va boshqa masalalar bo'yicha qo'mitalar (ishchi guruhlari) tashkil etish;
- Jamiat ustavi va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalar bo'yicha qaror qabul qilish.

5. Jamiat Kuzatuv kengashi Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalarini joriy etish uchun quyidagilarni amalga oshiradi:

Jamiat Ijroiya organi, ichki nazorat organlari, Jamiatda tuzilgan kollegial organlar faoliyatini muvosiflashtirish, zarurat tug'ilganda esa jamiatni rivojlantirish rejalarini va

unda belgilangan maqsadlarga erishish chora-tadbirlarini shlab chiqishni tashkil etish uchun ekspertlar va mutaxassislarini jalg qilish;

Jamiyat tashkiliy tuzilmasini qonun hujjatlari talablariga muvofiq joriy etish va doimiy ravishda ularning faoliyatini baholash, hamda har yilgi moliyaviy hisobotlarni Xalqaro moliyaviy hisobotlar standartlariga binoan chop etishga o'tilishini ta'minlash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalarini joriy etilishi ustidan nazorat olib borish.

6. Qonun hujjatlari va Jamiyat ustaviga muvofiq Kuzatuv kengashi vakolatlariga boshqa masalalar ham kiritilishi mumkin.

7. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolatlari Jamiyatning Ijroiya organiga berilishi mumkin emas.

### **III. Kuzatuv kengashi va mustaqil a'zolarini saylash, tayinlash va vakolatlarini muddatidan ilgari bekor qilish**

8. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni va jamiyat ustavida nazarda tutilgan tartibda aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan uch yillik muddatga saylanadi.

9. Jamiyat Kuzatuv kengashining tarkibiy miqdori Jamiyat ustavi bilan belgilab qo'yiladi.

10. Kuzatuv kengashi tarkibiga bittadan kam bo'limgan (uning ustavida nazarda tutilgan Kuzatuv kengashi a'zolari sonining 15% kam bo'limgan) mustaqil a'zosi kiritiladi. Bunda kuzatuv kengashining mustaqil a'zoligiga nomzodlar, jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan, qoida tariqasida aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi (yagona aksiyador) ko'rib chiqishi uchun tanlov asosida ko'rsatiladi (*O'RQ-814, 1 – modda, 18.01.2023y.*).

11. Kuzatuv kengashining mustaqil a'zoligi uchun tanlov va nomzodlarni tanlab olish mazkur Nizom asosida amalga oshiriladi. Quyidagilar kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'lishi mumkin emas:

so'ngi uch yil ichida jamiyatda va (yoki) jamiyatning affillangan shaxslarida ishlagan shaxs;

jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarning besh yoki undan ortiq foiziga egalik qiluvchi (to'g'ridan-to'g'ri va (yoki) affillangan shaxslar orqali) aksiyador;

jamiyatning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijoz va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lgan shaxs. Bunda qaysi shaxslar bilan bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming baravaridan ko'p bo'lgan summaga teng amaldagi shartnomasi mavjud bo'lsa, o'sha shaxslar mijoz va yirik yetkazib beruvchi deb e'tirof etiladi;

so'ngi uch yil ichida jamiyatga va (yoki) jamiyatning affillangan shaxslariga auditorlik xizmatlarini ko'rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi;

ketma-ket olti yil davomida jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga kirgan shaxs;

jamiyat va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo'lgan shaxs, bundan kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari va funksiyalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan kelishuvlar mustasno;

jamiyatning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'ngi uch yil ichida ularga a'zo bo'lgan shaxsning yaqin qarindoshi yoki quda tomonidan qarindoshi (ota-onasi, aka-ukalari, opasingilari, o'g'illari, qizlari, cri (xotini), shuningdek erining (xotinining) ota-onasi, aka-ukalari, opa singillari va farzandlari) bo'lgan shaxs;

davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo'lgan shaxs;

jamiyatning ustavida yoki aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining qarorlari bilan tasdiqlangan xujjatlarda belgilangan talablarga muvofiq bo'limgan shaxs (*O'RQ-814, 1-modda, 18.01.2023y.*).

12. Jamiatning korporativ aloqalar bo'yicha xodimi va Kuzatuv kengashi kotibi jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan mustaqil a'zolarining reestrini yuritadi va uni jamiyat rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

Mustaqil a'zolarining reestrini yuritish tartibi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi (*O'RQ-814, 1-modda, 18.01.2023y.*).

13. Jamiat kuzatuv kengashi mustaqil a'zosining ushbu Nizomning 11-bandida belgilangan talablarga muvofiqligi o'zgargan taqdirda, u jamiyatni va kuzatuv kengashini bu xaqda ikki ish kuni ichida xabardor qilishi shart. Bu xolda mazkur Nizomda belgilangan tartibda boshqa mustaqil a'zo sifatida taklif etiladi (*O'RQ-814, 1-modda, 18.01.2023y.*).

14. Jamiat Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar, cheklanmagan holda gayta saylanishlari mumkin.

15. Jamiat Ijroiya organining rabbari va uning a'zolari Jamiat Kuzatuv kengashiga saylanishlari mumkin emas.

16. Jamiatda mehnat shartnomasi (kontrakti) asosida ishlayogan shaxslar Jamiat Kuzatuv kengashi a'zolari bo'la olmaydilar.

17. Kuzatuv kengashi a'zosining vakolatlarini muddatidan ilgari bekor qilish aksiyador o'zgarganda, Kuzatuv kengashi a'zosi tomonidan o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, Kuzatuv kengashi a'zosining tegishli arizasi mavjud bo'lгanda va boshqa asoslarga ko'ra, aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining qarori bilan amalga oshiriladi.

18. Jamiat Kuzatuv kengashi va mustaqil a'zolarining saylovlari kumulyativ ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

19. Kumulyativ tarzda ovoz berilganda har bir aksiyadorga tegishli bo'lgan ovozlar soni, Jamiat Kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan mustaqil a'zolar va boshqa a'zolar soniga ko'paytiriladi hamda aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rjasida taqsimlashga haqlidir (*O'RQ-814, 1-modda, 18.01.2023y.*)

20. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzod Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

21. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida saylangan kuzatuv kengashi a'zosi mazkur yig'ilish bayonnomasida qaysi aksiyadorning vakili ekanligi yoki kuzatuv kengashining qaysi a'zosi mustaqil a'zo ekanligi ko'rsatilishi kerak (*O'RQ-814, 1-modda, 18.01.2023y.*).

#### IV. Kuzatuv kengashining raisi

22. Jamiat Kuzatuv kengashining raisi kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan ularning o'zlarini orasidan kuzatuv kengashi a'zolari umumiyligi soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.

23. Jamiat Kuzatuv kengashi raisini kuzatuv kengashi jami a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qayta saylashga haqlidir.

24. Jamiat kuzatuv kengashining raisi (yoki jamiat kuzatuv kengashining vakolatli shaxsi) uning ishini tashkil etadi, kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlisda bayonnomma yuritilishini tashkil etadi, jamiat ustavida o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishida raislik qiladi.

25. Jamiat kuzatuv kengashining raisi yo'qligida uning vazifasini kuzatuv kengashi a'zolaridan biri bajarib turadi.

## V. Kuzatuv kengashining majlisi

26. Jamiat kuzatuv kengashining majlisi kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusi bilan, kuzatuv kengashining a'zosi, taftish komissiyasining, jamiat ijroiya organining, shuningdek jamiat ovoz beruvchi aksiyalarining bir foizidan kam bo'limgan miqdorining egasi hisoblanadigan aksiyador (aksiyadorlar)ning talabiga binoan chaqiriladi.

27. Jamiat kuzatuv kengashining majlisi kuzatuv kengashining raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi. Majlisda majburiy tarzda quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:

ijroiya organining yillik biznes-reja bajarilishining borishi to'g'risidagi, jamiatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rileyotgan choralar to'g'risidagi, jamiatning tarkibiga kiradigan korxonalarining ularning biznes-rejalari, hamda jamiatning boshqa ichki hujjatlari bilan tasdiqlangan ko'rsatgichlariga erishish va bajarilgan ishlari to'g'risidagi hisoboti;

ichki audit xizmatining hisoboti;

taftish komissiyasining jamiatdagisi tobe (affillangan) shaxslar bilan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi, hamda bunday bitimlar tuzish uchun qonunchilik va jamiatning ichki hujjatlariga rioya qilinishi to'g'risidagi xulosasi.

28. Jamiat Kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish uchun kvorum, Jamiat Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolar sonining 75 foizidan kam bo'lmasligi kerak.

29. Kuzatuv kengashi a'zolarining soni Jamiat ustavida nazarda tutilgan miqdorning 75 foizidan kam bo'lib qolsa, jamiat kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini chaqirish shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning ana shunday navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek Ijroiya organ rahbari vakolatlari muddatidan ilgari bekor qilingan hollarda, uning vazifasini vaqtinchalik ijro etuvchisini tayinlashga haqlidir.

30. Jamiat kuzatuv kengashining majlisida qarorlar majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni va jamiat ustavida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

31. Jamiat kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi.

Jamiat kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lib qolgan hollarda, jamiat kuzatuv kengashi raisi hal qiluvchi ovozga ega bo'ladi.

32. Jamiyat kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga yoki uchinchi shaxsga berishiga yo'l qo'yilmaydi.

33. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida majlis bayoni yuritiladi. Kuzatuv kengashi majlisining bayoni majlis o'tkazilganidan so'ng o'n kundan kechiktirmay tuziladi.

34. Majlis bayonida quyidagilar ko'rsatiladi:

majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

majlisda hozir bo'lgan shaxslar;

majlisning kun tartibi;

ovozi berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari; qabul qilingan qarorlar.

35. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayoni, bayonning to'g'riligi uchun javobgar bo'lgan, majlisda ishtirok etgan jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi.

36. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayoni Jamiyat Ijroiya organi rahbariga ijro uchun u imzolangan kunda beriladi. Kuzatuv kengashi tomonidan aksiyadorlar umumiylig'i ilishini chaqirish to'g'risidagi qaror qabul qilingan taqdirda, mazkur qaror haqidagi ma'lumot Jamiyat Ijroiya organi rahbariga kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kunda beriladi.

37. Kuzatuv kengashining majlisi so'rov yo'li bilan ham o'tkazilishi mumkin. Bunda Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining qarorlari Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan sirtdan ovoz berish (so'rov) yo'li bilan qabul qilinishi mumkin.

Texnikaviy vositalar, Kuzatuv kengashi a'zolarini identifikasiyalash vositalari mavjud bo'lganda, Kuzatuv kengashining majlislari video-konferens-aloqa rejimida o'tkazilishi mumkin.

35. Kuzatuv kengashi majlisi bayonlari ular rasmiylashtirilgandan so'ng o'n kun muddatda Davlat aktivlarini boshqarish agentligining "Davlat mulki" axborot tizimida joylashtiriladi (PQ-415, 8.11.2022y).

## VI. Kuzatuv kengashi a'zolarining huquq va majburiyatları

38. Kuzatuv kengashi a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

Kuzatuv kengashi majlisida shaxsan ishtirok etish, reglament bilan ajratilgan vaqt doirasida majlisda muhokama qilinadigan masala bo'yicha so'zga chiqish;

Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra Jamiyatning ma'lum vaqt (davr) oralig'idagi faoliyati, uni rivojlantirish rejali haqidagi ma'lumotlarni olish;

qonun hujjalariiga va Jamiyatning ichki normativ hujjalari bilan belgilangan tartibda Kuzatuv kengashi a'zoligi uchun haq, xarajatlar uchun haq yoki kompensatsiya olish;

qonun hujjalarda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ega bo'lish.

39. Kuzatuv kengashi a'zosining majburiyatları:

Jamiyat bilan bitim tuzilganda, mo'ljallanayotgan bitim to'g'risidagi ma'lumotlarni, tegishli shartnomaning ahamiyatga molik bo'lgan shartlarini batafsil tarzda ko'rsatgan holda yozma xabarnoma yuborish yo'li bilan Jamiyat tomonidan bitim tuzilganda o'zining tobelligi (affillanganligi) to'g'risida xabardor qilish.

o'zining vakolati va majburiyatlarini vijdonan, shuningdek Jamiyat manfaatlari yo'lida amalga oshirish;

kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan a'zolar faoliyati Jamiyatda transformatsiya jarayonlarini samarali tashkil etish, korxonaning tashqi qarzlarini optimallashtirish, zamonaliv xarid tizimini joriy etish, xukumat qarorlarida nazarda tutilgan talablarni bajarish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga muqobil mablag'larni jalg etish kabi mezonlar asosida baholanadi.

Kuzatuv kengashi a'zosi qonun hujjatlari va Jamiyatning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

40. Kuzatuv kengashining a'zolari Jamiyatning imkoniyatlaridan (mulkiy yoki nomulkiy huquqlar, xo'jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlar, Jamiyat faoliyati va rejalar haqidagi ma'lumotlardan) o'z manfaatlari maqsadlarida foydalanish huquqiga ega emas.

41. Kuzatuv kengashi a'zoligiga nomzodlar zimmasiga quyidagi fidutsiar majburiyatlarni oladi:

**jonkuyarlikni namoyon qilish majburiyati** — kuzatuv kengashi a'zosi sifatida vijdonan va jonkuyarlik asosida harakat qilish;

**sodiqlikni namoyon qilish va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik majburiyati** — kuzatuv kengashi a'zosi sifatida birinchi navbatda korxona manfaatlaridan kelib chiqib harakat qilish;

**lozim darajada ko'zdan kechirishlikni namoyon qilish majburiyati** — kuzatuv kengashi a'zolidan korxonaga nisbatan qaror qabul qilishda ehtiyojkorlik bilan yondashish;

**mustaqil mulohazadan foydalanish majburiyati** — kuzatuv kengashi a'zosidan qarorlarni mustaqil, shaxsiy va boshqa manfaatlarni inobatga olmagan holda qabul qilish (*Vazirlar Mahkamasining 647-sod qarori, 4.11.2022y.*).

43. Jamiyat kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi kuzatuv kengashining boshqa a'zolari bilan bir qatorda Qonunda va ushbu Nizomda belgilangan teng huquqlar va majburiyatlarga ega bo'ladi (*O'RQ-814, 18.01.2023y.*).

## VII. Kuzatuv kengashi a'zolarining javobgarligi

44. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirganlarida va majburiyatlarini bajarganlarida Jamiyat manfaatlari yo'lida harakat qilishlari lozim, bunda qonunchilik va Jamiyatning ichki hujjatlariga binoan Jamiyat oldida javobgarlikka ega bo'ladir.

45. Ovoz berishda ishtirok etmagan yoki Jamiyatga zarar yetkazilishiga olib kelgan qarorga qarshi ovoz bergen Kuzatuv kengashi a'zolari javobgarlikka ega bo'lmaydilar, O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlar" va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 90-moddasida belgilangan hollar bundan mustasno.

46. Jamiyat yoki Jamiyatning joylashtirilgan aksiyalarining kamida bir foiziga ega bo'lgan aksiyador (aksiyadorlar), Jamiyatga yetkazilgan zararlarni qoplash to'g'risida Kuzatuv kengashi a'zosiga nisbatan da'vo bilan sudga murojaat qilishga haqlidirlar.

## VIII. Kuzatuv kengashi kotibi

47. Kuzatuv kengashi kotibi (keyingi o'rinda Kotib) kuzatuv kengashi majlislarini qonunchilik hujjatlari, jamiyat ustavi va boshqa ichki hujjatlari talablariga muvofiq tayyorlash va o'tkazishni ta'minlaydi.

Kuzatuv kengashi kotibini tayinlash kuzatuv kengashining vakolatiga kiradi.

Kotibni tayinlash to'g'risidagi qarorda kuzatuv kengashi unga to'lanadigan haqi miqdorini belgilashi lozim.

Kotib o'ziga yuklangan vazifa va funsiyalarni bajarish uchun zarur bilim va malakaga, tajribaga ega bo'lishi, davlat boshqaruv organlarida kamida 3 yil ishlagan bo'lishi lozim.

Kotibni tayinlashda kuzatuv kengashi nomzodning jamiyat kotibi funksiyalarini bajarish qobiliyatini, shu jumladan uning ma'lumoti, ish tajribasi va kasbiy fazilatlarini har tomonlama baholashi lozim.

Jamiyatning affillangan shaxsi bo'lgan shaxsni kuzatuv kengashi kotibi etib tayinlash tavsiya etilmaydi.

Kotibga so'ralgan hujjatlar va/yoki ularning nusxalari (maxfiy va tijorat siri bo'lgan, shuningdek arxiv yoki boshqa idoralardan olinishi kerak bo'lgan axborotlardan tashqari) tegishli so'rov kelib tushgan paytdan e'tiboran uch ish kuni ichida taqdim etilishi kerak.

Kuzatuv kengashi yig'ilishlarini tayyorlash va o'tkazish bilan bog'liq barcha tashkiliy masalalarni kotib amalga oshiradi.

Kotib kuzatuv kengashining barcha a'zolarini kuzatuv kengashi majlisi o'tkazilishi to'g'risida yozma ravishda kamida uch kun oldin xabardor (*1-ilova asosan*) qiladi, zarur hollarda esa ovoz berish byulletenlarini (*2-ilovaga asosan*) ularga yuborilishini (taqdim etilishini) ta'minlaydi, to'ldirilgan byulletenlarni, boshqaruv a'zolarining yozma fikrlarini yig'adi, yig'ilishda ishtirok etayotgan kuzatuv kengashi a'zolari ro'yxatini (*3-ilovaga asosan*) tuzadi va ularni kuzatuv kengashi raisiga taqdim etadi.

Kuzatuv kengashining yig'ilishida kotib kuzatuv kengashi yig'ilishini o'tkazish tartibiga to'g'ri rioya etilishini ta'minlaydi. Kotib kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasini yuritadi.

Kotib kuzatuv kengashi a'zolariga o'z vazifalarini bajarishda yordam beradi.

Kotib kuzatuv kengashining yangi saylangan a'zolariga jamiyatda amaldagi kuzatuv kengashi va jamiyatning boshqa organlari faoliyatiga doir qoidalarni, jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tushuntiradi, mansabdor shaxslar to'g'risida ma'lumot beradi, jamiyatning ichki hujjatlari, aksiyadorlar umumi yig'ilishi va kuzatuv kengashining amaldagi qarorlari bilan tanishtiradi, kuzatuv kengashi a'zolarining o'z vazifalarini lozim darajada bajarishi uchun muhim bo'lgan boshqa ma'lumotlarni taqdim etadi.

Kotib kuzatuv kengashi a'zolariga qonunchilik hujjatlari, jamiyat ustavi va boshqa ichki hujjatlari talablari bo'yicha aksiyadorlarning umumi yig'ilishini, kuzatuv kengashi yig'ilishlarini tayyorlash va o'tkazishning protsessual masalalari bo'yicha tushuntirishlar beradi.

Kotib jamiyat to'g'risidagi ma'lumotlarning oshkor etilishini (taqdim etilishini) nazorat va jamiyat hujjatlarining saqlanishini ta'minlaydi.

Kotib qonunchilik hujjatlarida, shuningdek jamiyatning ustavida va boshqa ichki hujjatlarida belgilangan jamiyat to'g'risidagi ma'lumotlarni saqlash va oshkor etish (taqdim etish) tartibiga doir talablarga rioya etilishini ta'minlaydi.

Kotib jamiyat tomonidan qimmatli qog'ozlar emissiyasi risolalarida va uning choraklik hisobotlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarning, shuningdek jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sir etuvchi muhim faktlar to'g'risidagi ma'lumotlarning jamiyat tomonidan o'z vaqtida oshkor etilishini nazorat qiladi.

Qonunchilik jamiyatni muayyan hujjatlarni saqlash va ularni aksiyadorlarning so'roviga binoan taqdim etishni talab qiladi. Kotib bunday hujjatlarning saqlanishini, ularga kirishni, shuningdek ularning nusxalarini taqdim etishni ta'minlaydi. Hujjatlarning nusxalari kotib tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Kotib kuzatuv kengashi raisiga tartib-qoidalarga rioya qilishga to'sqinlik qiluvchi barcha faktlar to'g'risida xabardor qiladi.

#### **IX. Yakuniy qoidalar**

48. Kuzatuv kengashi a'zolari ishini tashkiliy-texnik ta'minlash, shuningdek aksiyadorlar va investorlar bilan o'zaro munosabatlar uchun Jamiyatning tegishli tuzilmaviy bo'linmasi tomonidan amalga oshiriladi.

49. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

50. Agar mazkur Nizomning ayrim qoidalari qonun hujjatlari yoki Jamiyat Ustaviga zid kelgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va/yoki Jamiyat Ustavi normalari qo'llaniladi.

**XABARNOMA**  
**"O'zbek geologiya qidiruv" AJ kuzatuv kengashi majlisi**  
**o'tkazilishi to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlar va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 78-moddasiga asosan 202\_\_\_\_\_ yil \_\_\_\_\_, soat \_\_\_\_\_ da kuzatuv kengashining navbatdagi/navbatdan tashqari majlisi o'tkazilishi to'g'risida habardor qilamiz.

Kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilgan:

1. \_\_\_\_\_
2. \_\_\_\_\_
3. \_\_\_\_\_

Majlis Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Bobir ko'chasi, 15-uyda, Jamiyatning konferensiylar zalida o'tkaziladi.

Kun tartibiga kiritilgan masalalar bo'yicha xujjalalar ilova qilinadi.

Ilova \_\_\_\_\_ varaqda.

**Kuzatuv kengashi kotibi:**

F.I.Sh. \_\_\_\_\_

Sana: \_\_\_\_\_

**OVOZ BERISH BYULLETENI**

Nº	Kun tartibidagi masalalar	Ovoz berishga qo'yilgan masalalarning ta'rifi	Ovoz berish variantlari (kerak bo'lmasanini o'chiriring)*		
1.			Yoqlayma n	Qarshi	Betaraf
2.					
3.					
4.					
5					

Familiyasi, ismi va otasining ismini

\_\_\_\_\_

(imzo)

\* Ovoz berish variantlaridan faqat bittasini qoldiriladi.

*Byulleten faqat kuzatuv kengashi a'zosi tomonidan imzolanishi shart.*

"Jamiyat kuzatuv kengashi  
*to'g'risida"gi Nizomga 3-ilova*

**"O'zbek geologiya qidiruv" AJ kuzatuv kengashining 202 \_\_\_\_\_, soat  
da kuzatuv kengashining navbatdagi/navbatdan tashqari majlisida ishtiroy  
etaryotgan kuzatuv kengashi a'zolari**

Nº	F.I.Sh.	Lavozimi	Izox
1			
2			
3			
4			
5			

**Kuzatuv kengashi kotibi**

**F.I.Sh.**

Sana: \_\_\_\_\_